

M. Xolmuradova

(Toshkent, O'zbekiston)

xolmurodova@navoiy-uni.uz

“Qutadg‘u bilig” leksikasining statistik tahlili va genetik asoslari

Abstrakt

Maqolada “Qutadg‘u bilig”ning turkiy va jahon xalqlari madaniyati tarixida tutgan o‘rni, til taraqqiyotini o‘rganishdagi ahamiyati haqida so‘z boradi. YUNESKO tomonidan “Qutadg‘u bilig”ning 950 yilligi munosabati bilan 2019-yilning “Qutadg‘u bilig” yili deb e‘lon qilinishi millatimiz tarixida ulkan voqea ekanligi asoslangan.

Maqolada “Qutadg‘u bilig” leksikasining statistik tahlili, o‘z qatlam va o‘zlashma qatlam nisbati masalasi tadqiq etilgan. Doston matnidagi so‘zlarning 84 foizini turkiy leksemalar tashkil etishi ko‘rsatib berilgan. Turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida fonetik, semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llanishiga misollar keltirilgan. “Qutadg‘u bilig” matnidagi leksemalarning shevalarga munosabati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *statistika, turkiy so‘zlar, bilim, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, arabcha so‘zlar, forsiy so‘zlar, xitoycha so‘zlar, sanskritcha o‘zlashmalar.*

Muallif haqida: *Mushtariy Xolmuradova* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

Tavsiya etilayotgan havola: Xolmurodova, Mushtariy. 2019. “Qutadg‘u bilig” leksikasining statistik tahlili va genetik asoslari”. *Oltin bitiglar* 4: 14—33.

Kirish

Jahon tilshunosligida til tarixi, uning taraqqiyot bosqichlari, qadimgi yozma yodgorliklardagi qarashlarning ijtimoiy va ma’naviy qiymatini o‘rganish, buyuk ajdodlarimiz tafakkuri mahsuli bo‘lgan manbalarni chuqur tahlil qilish muhim ilmiy yo‘nalishni tashkil etmoqda. Mumtoz manbalarni o‘rganish yuzasidan xalqaro doiralarda bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ma’naviy-ma’rifiy merosni qadrlashga, undan amaliy ravishda foydalanishga oid qarorlar qabul qilinmoqda. YUNESKO tomonidan “Qutadg‘u bilig”ning 950 yilligi munosabati bilan 2019-yilning “Qutadg‘u bilig” yili deb e’lon qilinishi millatimiz tarixida ulkan voqea bo‘ldi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turkiy tilda bitilgan ilk badiiy dostonidir. Muallif asar uchun yozgan so‘zboshida quyidagilarni aytadi: *“Bu kitabni oqiyli bu bājirlārini ma’lum qiliyli kitabdin jaḡṣī ‘azizraq turur”*, ya’ni “bu kitobni o‘qigan, bu baytlarni hammaga ma’lum qilgan — bu kitobdan ham yaxshiroq, azizroqdir” [Каримов 1972, 3].

Ko‘pgina olimlar “Qutadg‘u” so‘zini ikkiga bo‘lib, “qut” va “adg‘u” so‘zlaridan iborat ekanligini aytadi. *Qut*ni “baxt” deb tushuntiriladi, *adyuni* “berish”, “ato etish” deb talqin qilinadi. “Qutadg‘u bilig” leksikasini o‘rganish jarayonida asar matnida *qutad*, *qutud*, *qutadyu*, *qutadya* shaklidagi so‘zlar uchradi. Bu so‘zlarning ma’nosi “baxtli bo‘lmoq” tarzida izohlangan. Shunga ko‘ra asar nomining yana bir — “Baxtli bo‘lish ilmi” ma’nosi ham kelib chiqadi. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning o‘zi ham asar haqida shunday fikr bildiradi: *Kitab atī urdum qutadyu bilig, qutadsu oqiyliqa tutsu elig*, ya’ni “Bu kitobning otini “Qutadg‘u bilig” deb atadim, o‘qiganning qo‘lidan tutib baxt tomon olib borsin”.

“Qutadg‘u bilig” asarini birinchilardan bo‘lib o‘rgangan Herman Vamberi turkiylar haqida quyidagi fikrni bildiradi: “Eng muhimi shundaki, turkiylar o‘zlarining bilimdonliklari bilan butun dunyoni larzaga solgan. Shunisi isbot talab etmaydigan haqiqatki, va ayni paytda hayratlanarliki, bizning Ovro‘pada ibtidoiy hayot hukm surgan bir paytda ularda milliy adabiyot ravnaq topgan”. Asar bo‘yicha tadqiqot olib borgan olim Robert Dankoff 1983-yili *Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig). A Turko-Islamic Mirror for Princes* nomli asar yozdi.


Robert Dankoff asar qahramonlariga quyidagicha ta’rif beradi:

Name (ism, nom)	Occupation (lavozi)	Principle (tamoyil, amal)
Rising Sun (Tk.Kün Toydı, lit. “the sun has risen”) (quyoshning chiqishi)	king (hukmdor)	Justice (adolat)
Full Moon (Tk.Ay Toldı, lit. “the moon is full”) (to‘lin oy)	vizier (vazir)	Fortune (boylik)
Highly Praised (Tk.Ögdülmiş, lit. “praised”) (maqtovga loyiq)	Sage (donishmand)	Intellect (or Wisdom) (aql, donolik)
Wide Awake (Tk.Ođyurmiş, lit. “awakened”) (keng fikrli, zakovatli)	ascetic (zohid)	Man’s Last End (oxirgi vafot etuvchi kishi)

“Qutadg‘u bilig” timsollari tasviri ayrim madaniy taraqqiyot elementlarining Sharqdan boshlanganiga dalil bo‘la oladi. Karabuk universiteti olimasi L. G. Kaya san‘at tarixi borasida fikr yuritib, XI asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot, hukmdorlar va a‘yonlar munosabatlari haqida ma‘lumotlar beradi. Unda aytilishicha, XI asrda hukmdorlar maxsus qubba (mehrob) shaklidagi taxtda o‘tirishgan. Ko‘plab haykallar, rasmlar va miniatyuralarda hukmdorlar qo‘lida hukmronlik ramzi hisoblangan oltin jom bilan tasvirlangan. Mana shu xususiyat keyinchalik G‘arb madaniyatining shakllanishiga ham ta‘sir qilgan [Kaya 2015, 174].

“Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llangan 3370ta leksemaning 2817tasi turkiy (28 tasi qorishiq; 85%), 416tasi arabcha (11%), 91tasi forsiy (3%), 7tasi sanskritcha (0,2%), 7tasi so‘g‘dcha (0,2%), 6 tasi xitoycha (0,14%), 13tasi gibrid so‘z (0,4%): 7tasi arabcha+forscha, 2tasi arabcha+yunoncha, 2tasi sanskritcha + forsch, 1tasi forsch+hindcha, 1tasi arabcha+lotincha birliklardir. Jami leksemaning 2500tasi ism kategoriyasiga, 870tasi esa harakat-holat kategoriyasiga mansub.

Doston leksikasining tarixiy-etimologik tarkibini quyidagi diagramma orqali ko‘rsatish mumkin:



O‘z qatlam

Turkiy tub so‘zlar turkiy tillar kelib chiqishi, shakllanishi, taraqqiyotini ko‘rsatuvchi, shu tilda muloqot yurituvchi xalqning tarixiy va hayotiy kechimini yorituvchi til fakti ekan, uni bor xususiyati bilan tadqiq etish, o‘rganish turkologiya uchun zaruriy masala bo‘lib qoladi [Миртожиев 2010, 6].

Doston tarkibida qo‘llangan turkiy so‘zlar struktur-grammatik xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhga oid:

1. Tub so‘zlar:

Aba—“ajdod”, *erk*—“kuch, hokimiyat”, *esän*— “sog‘-omon, eson”, *ew*—“uy”, *esür*—“mast” bo‘lmoq, sarxush bo‘lmoq”.

2. Yasama so‘zlar:

a) tub turkiy so‘zga yasovchi affikslar qo‘shish yordamida hosil bo‘lgan so‘zlar: *bayirsaq*“mehribon”, *alpli*q“bahodirlik”, *ayiči* “xazinabon”, *etükči* “etikdo‘z”, ökünč “o‘kinch, afsus”;

b) o‘zlashmalarga turkiy qo‘shimchalar qo‘shish bilan yasalgan qorishiq so‘zlar: *arabcha+turkiy: azizlik*—“azizlik”, *ažizliq*—“ojizlik”, *ažalsiz*—“ajalsiz”, *duači*—“duo qiluvchi”, *yafilliq*—“g‘ofillik”, *yaziliq*—“e‘tiqod uchun kurashuvchi”, *hažibliq*—“hojiblik”, *hilasiz*—“hiylasiz”, *maliklik*—“maliklik”, *mašriqliq*—“mashriqlik”, *vafaliy*—“vafoli”, *zuhdliq*—“zohidlik”, *vazirliq* —“vazirlik”, *qudratliq*—“qudratli”, *xatarliq*—“xatarli”, *žafāliq*—“jafoli”, *žafasiz* —“jafosiz”; *forscha+ turkiy: abadanliq*—“obodonlik”, *afsunči*—“afsunchi”, *irānliq*—“eronlik”, *šakarlig*— “shakarli, shirin” *so‘g‘dcha +turkiy: ažunči*—“jahongir”, *ažunluq*— “dunyo sohiblari”.

Bunday so‘zlar 50ga yaqin miqdorni tashkil etadi.

Eδgü leksemasi “Kultegin” bitiktoshida *edgü*shaklida qo‘llangan: *yayuuq ersär edgü ayi berür* [ДТС, 1969, 162]. Bugungi

kunda bu soʻz fonetik oʻzgarishga uchragan, *ezgu* shaklida qoʻllanadi. “Devonu lugʻotit turk”da ham *edgü* shaklida kelib “yaxshi, ezgu, chiroyli” maʼnolarida ishlatilgan [ДЛТ 1960, 149]. “Qutadgʻu bilig”da bu soʻzning *edgü*, *edgü* shakllari qoʻllangan: *Kimi edgü tutsa bayat edlāsä, qamuy edgü boldi aniñda basa.*— Kimni Xudo ezgu tutsa, ulugʻlasa, shu tufayli (uning) hamma (ishlari) yaxshi boʻladi [ҚБН, 6064; 222b3]. Inson “ezgu tutilishi, ulugʻlanishi” uchun yaxshi amallari, ibratli faoliyati bilan umrini bezamogʻi lozim. Ayrim yozma manbalarda *edgü* soʻzining “yaxshi, foydali, saxiy, sogʻlom, ishonchli” maʼnolari ham qayd etilgan [Дадабоев 1991, 61].

“Ezgu, yaxshi” maʼnosidagi **yaqši** soʻzi ham fonetik oʻzgarishga uchragan. Soʻz tarkibidagi chuqur til orqa q(q) tovushi **x** ga almashgan. *Edi yaqši aymış biliglig qari, biligligkä aytib işiñ qıl yurı.*— Bilimli, yoshulli juda yaxshi aytibdi, kel, ishingni bilimlidan soʻrab qil [ҚБН, 4283; 158b12]. “Oʻgʻuznoma”da ham shu shaklda kelgan: *baluqni yaqši saqlap sen tep tedi* [ДТС, 238]. Soʻzning “Qutadgʻu bilig”dagi shakli etimologik tahlilga aniqlik kiritadi: leksik birlikning *yaq=* asosidan shakllanganini koʻrsatadi. *yaqši* // yaxshi “ijobiy sifatga ega”, “kishiga yoqadigan, maʼqul boʻladigan” [ЎТЭЛ I 200, 146].

“Gʻala-gʻovur, shovqin-suron, toʻs-toʻpolondan xoli” maʼnolarini bildirgan **inč** leksemasi Mahmud Koshgʻariy lugʻatida hamda “Двернетюрский словарь”da ayni shaklda qayd etilgan: *könül inč-mü?* [ДЛТ III 1963, 437; ДТС 1969, 210]. “Qutadgʻu bilig”da shu asosdan yasalgan *inčin* (xotirjam), *inčlän* (tinchlanmoq, xotirjam boʻlmoq), *inčlik* (tinchlik, xotirjamlik), *inčrün* (tinchlanmoq, xotirjam boʻlmoq) kabi soʻzlar qoʻllangan: *Ne inčlik tilär-sä tünäktä turub, ne arzu qulur-sä könül ög urub.* — Sen zindonda turib qanday farogʻat tilaysan, koʻngil (va) aqlingni berib qanday orzu istaysan [ҚБН, 5311; 195b8]. Baytda *tünäk* “zindon” deyilganda, “dunyo” nazarda tutilmoqda. *Tünäk* tun soʻzining “qorongʻulik”, “zimiston” semalari asosida yuzaga kelgan.

“Oʻzi bilan oʻzi boʻlish, yakkalik; tanholik” maʼnosi **yalhuz** leksemasi orqali ifodalangan: *Ataliy atasiz qalir yalhuzun, analiy anasiz bolur öksüzün*— Otali(lar) yolgʻizlikda otasiz qoladi(lar), onali(lar) yetimlik bilan onasiz boʻladi(lar) [ҚБН, 5267; 194a7]. Baytda shaxsning yakka oʻzi qolishidan koʻra koʻproq “madadsiz, tayanchsiz, gʻamxoʻrsiz”, “ruhan yolgʻiz” qolish maʼnolari aks etgan. “Двернетюрский словарь”da bu soʻzning *yalhuzun* “tanho, yakka”, *yalhuzluq* “yolgʻizlik” kabi shakllari uchraydi [ДТС 1969, 230]. Bugungi kunda bu soʻz fonetik oʻzgarishga uchragan, yolgʻizlik

shaklida talaffuz qilinadi va yoziladi [ЎТД II 2006, 33].

“Bilim, kasb, ish va shu kabilarni o’zlashtirmoq, egallamoq, bilib olmoq” ma’nosi **ögrän**= leksemasi orqali ifodalangan: *Sen aymış bu sözlär kim ögränsälär, ažun içrā bulıaj tiläk arzular* — Sen aytgan bu so’zlarni kim(lar) o’rgansa(lar), dunyo ichra tilak-orzularini topadi(lar) [ҚБН, 4577; 169^b8]. Asarda ög “bilim, aql-zakovat” asosidan yasalgan *ögä* “donishmand, dono, olim”, *ögälik* — “donish mandlik”, *öglüg* “aqli”, *ögrät* = “o’rgatmoq” kabi so’zlar qo’llangan. Mahmud Koshg’ariy lug’atida *ög* leksemasi haqida shunday ma’lumot bor: **ög**— aql va ziyraklik. Shuning uchun yoshi ulug’ va aqlilarga **ögä** laqabi beriladi. Bu so’z o’rta yoshga yetib ulg’aygan har bir hayvonga nisbatan ham ishlatiladi. Shuningdek, to’rt yoshdan oshgan otlarga *ög at* deyдилar [ДЛТ 1960, 82]. **Ögrän** = metatezaga uchragan, hozirgi o’zbek adabiy tilida *o’rganmoq* shaklida ishlatiladi: *ögrän* > *örgän*. So’z fuziya (o’zak va qo’shimchalar chegarasining sezilmay qolishi) hodisasini ham namoyon etadi. Ayrim turkiy tillar, jumladan, turk tilida *öğrenmek* shaklida qo’llanadi.

Yañ asosidan shakllangan **yañil** = so’zi “yanglishmoq, adashmoq, xato qilmoq” ma’nolarini anglatgan: *yañilmaz kişi kim ayu ber meñä, yañilmış tümän miñ ayayın señä*— Yanglishmas kishi kim menga aytib ber, yanglishganlar tuman mingta, senga ayta qolayin [ҚБН, 195; 4^b3]. Hozirgi o’zbek adabiy tilida *yanglishmoq* shaklida ishlatiladi. *Yañliş*— “to’g’ri yo’lni yo’qotmoq, adashmoq”. Bu so’z qadimgi turkiy tildagi “xato qilmoq” ma’nosini ifodalovchi -(i)l qo’shimchasini olgan shaklidan “bir oz” ma’nosini ifodalovchi -(i)ş qo’shimchasi bilan hosil qilingan [ЎТД I 2000, 139].

“Qutadg’u bilig”da ishlatilgan, hozirgi o’zbek tilida ayrim fonetik o’zgarishlar bilan qo’llanayotgan leksik birliklar so’z tarkibidagi struktur-grammatik jarayonlar haqida ham ma’lumot beradi. Fonetik o’zgarishlar leksemalar etimologiyasini aniqlashga, so’zning tarixiy fonetik shaklini tiklashga, fonetik qonuniyatlarning mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Fonetik o’zgarishlar tovush tushishi yoki ortishi, o’zak va qo’shimcha chegarasining sezilmay qolishi, singarmonizm qonuniyatining buzilishi bilan belgilanadi.

Semantik o’zgarishlar bilan qo’llanadigan so’zlar. “Qutadg’u bilig”da qayd etilgan so’zlarning 500ga yaqini (12%) hozirgi o’zbek adabiy tilida semantik o’zgarishlar bilan qo’llanadi.

Doston matnida **adaş//aḡaş** so’zi “do’st, oshna, og’ayni, o’rtoq” ma’nosida kelgan: *Qaḡaşın yoq ersä yurı tut qaḡaş, aḡaş eḡgü bolsa bu boldı qaḡaş*.—Qarindoshing yo’q bo’lsa, kel, qarindosh tut, yor-do’st ezgu bo’lsa, u qarindosh(day) bo’ladi [ҚБН, 3135;

117b13]. Mahmud Koshg'ariy lug'atida ham bu leksema "do'st, o'rtoq" ma'nosida qayd etilgan [ДТС 1969, 9]. So'zning asosi "ism" ma'nosidagi **at** leksemasidir: at+dash=atdash> addash> adash> ädäš [ЎТЭЛ I 2000, 20]. Hozirgi kunda ismi boshqa biror kimsa bilan bir xil bo'lgan odam, ismdosh [ЎТИЛ I 2006, 39] ma'nosida qo'llaniladi. So'zning asar matnidagi ma'nosi bilan hozirgi o'zbek tilidagi ma'nosi "bir xillik" semasi orqali bog'lanadi. *Adaš* // *aδaš* so'zining "Qutadg'u bilig" matnida "yosh, qiziqish, faoliyat jihatidan bir xillik" semasi aks etgan bo'lsa, hozirgi ma'nosida "ism jihatdan bir xillik" semasi namoyon bo'ladi.

"Qutadg'u bilig"dagi ba'zi so'zlar semantikasida kengayish yuz bergan. Masalan, **irig** leksemasi asarda "dag'al, qo'pol" ma'nolarini anglatgan: *Irig sözlämägil kişikä tilin, iriglik ot-ul ot küyürmä yalın.*—Kishilarga tilingda dag'al so'zlamagin, dag'allik olovdir, u kuydiradigan yolindir [ҚБН, 1401; 57^b6]. Hozirgi o'zbek tilida narsa-buyum hajmiga nisbatan shu so'zning *yirik* shakli ishlatiladi (so'z boshida undosh orttirilgan). Ayrim narsa-buyumlarni sifatlashda *yirik* so'zida "qo'pol, dag'al" semasi ham namoyon bo'ladi.

"Qutadg'u bilig"dagi so'zlarning hozirgi o'zbek adabiy tiliga munosabatini tahlil qilish davomida leksemalar semantikasida zid ma'nolar shakllangani ham kuzatildi. Masalan, **ögtäm** so'zi "Qutadg'u bilig"da "kibor, kibrli, yaramas, maqtanchoq" ma'nolarida qo'llangan: *Kötürmä, bayutma eşiz ögtämig, aḫir qilya šaksiz seḫä ot emig* — Yaramas, maqtanchoq (kishilar)ni ko'tarma, boyitma, (u) oxiri shaksiz senga dori-darmon qiladi [ya'ni boshingga yetadi] [ҚБН, 5405; 199a5]. Motivlangan leksema "Двернетюрский словарь"da ham ayni ma'noda qayd etilgan [ДТС 1969, 381]. Bugungi kunda **ögtäm** (o'ktam) so'zi ijobiy sema kasb etgan bo'lib, "boshqalarga o'z ta'sirini, so'zini o'tkazadigan; shijoatli, o'tkir" ma'nolarini ifodalaydi [ЎТИЛ V 2008, 146]. Fe'l-atvorni bildiradigan yasama aksariyat o'rinlarda tashqi ko'rinish, gavda tuzilishini ifodalashda chiroyli, ko'rkam leksemalari bilan sinonimik qatorni shakllantiradi. Bunday zidlikning yuzaga kelishi, so'z semantikasida zid ma'nolarning hosil bo'lishi *enantiosemiya* deb yuritiladi. Enantiosemiya (yun. *enantios* — "qarama qarshi" + sema -belgi) bir so'zning semantik tuzilishida zid ma'nolarning taraqqiy etishi, antonimik ma'nolarning yuzaga kelishidir [Ҳожи́ев 2002, 134]. So'z semantikasi bilan bog'liq bo'lgan enantiosemiya hodisasi so'zning qo'llanish doirasi, semalar taraqqiyoti bilan belgilanadi. F. Abdujabborova *ögtäm* so'zining shakllanish tadrijini shunday ko'rsatadi: *ög > ögdäm > ögtäm > öktäm* [Абдужаббарова 2011, 128].

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadigan ayrim so‘zlar fonetik jihatdan ham farqlanadi. Masalan, **silik** “pok”, “toza”, “chiroyli” ma’nolarida kelgan: *Yula-teg küyär-sä bu kün ey elig, yaruqluq ađınqa turur ey silik*. — Sen bugun shamdek kuyayotirsan, ey elig, (lekin) yorug‘lik boshqagadir, ey nazokatli [ҚБН, 5058; 187^a8]. “Poklanmoq, tozalanmoq” ma’nosida *sili*=so‘ziga sifat yasovchi -k qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan *silik* so‘zi “Kultegin” bitiktoshida uchraydi: *silik qız oyluñ kün bolti* – sening mard o‘g‘il-qizing qul bo‘ldi [ДТС 1969, 50] Ushbu leksema ДЛТ da er so‘zi bilan birikma hosil qilib, “oliyjanob odam, kishi” ma’nosini ifodalagan. *Silik* “Qutadg‘u bilig”da erkaklarga nisbatan qo‘llangan. *Suluk* shaklida XX asr boshlariga oid manbalarda ham kuzatiladi. Jumladan, “O‘tkan kunlar” romanida erkaklarga nisbatan ishlatilgan. Hozirda gender jihatdan xoslanib, **suluv** shaklida “go‘zal, chiroyli, ko‘rkam” ma’nosida aksariyat hollarda ayollarga nisbatan qo‘llaniladi [ЎТИЛ II 2006, 84].

“Qutadg‘u bilig”da uchragan bir qator so‘zlar semantikasida tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarishlar yuz bergan. Semantik o‘zgarishlar muayyan semalarning iste’moldan chiqishi, yangi semalar, ba‘zan teskari ma’nolarning shakllanishi bilan belgilanadi. O’n asrdan ortiq vaqt o‘tganiga qaramay, leksik birliklarning asosiy semalari saqlanib qolgan. O‘zgarishlar yondosh semalarda kuzatiladi.

Asar matnida **qonuq** (qon+(u)q) so‘zi “mehmon” ma’nosini bildirgan: *Nelük arsiqar-sen aya öldäçi, özün ekki künlük qonuq boldäçi*. — Nimaga mag‘rurlanasan, ey o‘luvchi, o‘zing ikki kunlik mehmon bo‘luvchi(san) [ҚБН, 3482; 130^b3]. Bu so‘z Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida “mehmondorchilik, ziyofat” ma’nosida ham qo‘llangan. O‘g‘uzlardan boshqa qabilalar tilida *qonuq* “uy egasi yoqtirmagani holda, birovning uyida turish” ma’nosida qayd etilgan [ДЛТ 1963, 351]. “Qutadg‘u bilig”da mavjud *qonuqluq* — “mehmondo‘stlik”, *qonut* — “boshpana”, *qonutçi* — “boshpana beruvchi, eshik og‘asi, boshlig‘i” so‘zlari *qonuq* leksemasiga aloqador. Bu so‘zlar hozirda iste’moldan chiqqan. *Qonuq* Qashqadaryo, Surxondaryo shevalarida “mehmondorchilik, to‘ylarda beriladigan kichik ziyofat” ma’nolarida qo‘llanadi. Uzoqdan kelgan qarindoshlar, yaqinlar to‘y egasiga aloqador shaxs xonadonida tunab qolishgan va ular *qo‘noqlar* hisoblangan. To‘y egasi tomonidan qo‘noqlarga mehmon qilish uchun ajratilgan masalliqalar (go’sht, yog‘, guruch) *qo‘niq* deb nomlangan. Qoraqalpoq shevalarida *qonalqa* “mehmon” tushunchasini ifodalaydi: Qonalqama bir qozı soydirmasang... [Қарлибаева 2017, 19]. Mehmonlarga beriladigan ovqat metonimiya

usulidagi ma'no ko'chishi asosida *qonalqa* deyiladi [Қарлибаева 2017, 28]. *Qo'noq* so'zi Zomin shevasida ham saqlanib qolgan. "Qishloqlarda uzoqdan kelgan qo'noqlar to'y egasiga yaqin kishilarning uylariga oldindan bo'lib berilgan. Masalan, bir uyga Pishag'ardan kelgan kishilar "qo'niqqa" borishgan bo'lsa, ikkinchi xonadonga Og'ar qishlog'idan kelganlar qo'nishgan" [Тўйчибоев 2012, 50]. Hozirgi turk tilida "mehmon" ma'nosi asl turkiy *konuk* leksemasi qatori *misafir* va *mihman* o'zlashmalari bilan ham ifodalanadi [ТПСИ, 560].

Yitür= "yo'qotmoq, boy bermoq": *Yitürdüm yigitlik yetildi yašim, yipär ketti kafur ešündi bašim*.— Yigitlikni yo'qotdim, yoshim yetildi, ipor [ya'ni qora] ketdi, boshim kofur [ya'ni oq] yopindi [ҚБН, 4744; 175a13]. Yit= "yo'q bo'lmoq"ning orttirma darajasi hisoblanuvchi bu leksema "Devonu lug'otit-turk"da ham shu ma'noda qayd etilgan [ДЛТ 1963, 363]. Uning Alisher Navoiy asarlarida ham qo'llangani kuzatiladi: Har oyinakim, musofir ko'rgan yo'lg'a qadam ursa va yetmag'an vodiya' yugursa yo'l yiturmak ehtimoli bor [АНАТИЛ II 1985, 80]. Baytlarda qo'llangan *yitür*= so'zining "yo'qolmoq" ma'nosidagi asosi hozirda Qashqadaryo, Surxondaryo shevalarida *jitirmoq*, *jitmaq* shakllarida, birlamchi ma'nosini saqlagan holda ishlatiladi.

Asardagi **börk** so'zi "bosh kiyim" ma'nosida qo'llangan: *Nečä er bedüsä baš ayriy bedür, nečä baš bedüsä bedük börk kedür*.— Kishi qancha ulg'aysa, (uning) bosh og'rig'i (shuncha) ko'payadi, bosh qancha kattalashsa, shunchalik katta bo'rk kiyadi [ҚБН, 427; 22b4]. *Börk*—"bosh kiyim", "qalpoq", "telpak" [АНАТИЛ I 1985, 346]. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "qopla", "yop-" ma'nosini anglatgan *börü-* fe'lidan [ДЛТ 1960, 164] -k qo'shimchasi bilan yasalgan [ЭСТЯ II 1974, 222]; o'zbek tilida ö unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: *börü*→*k*=*börük*>*börk*>*bork* [ЎТЭЛ I 2000, 77]. S.E.Malov mazkur so'zni mo'g'ulcha *borkur* (покрывало) so'ziga bog'laydi [Malov 1951, 373]. **Börk** qadimgi turkiy til manbalarida, Mahmud Koshg'ariy lug'atida ham "bosh kiyim" ma'nosida qayd etilgan [ДЛТ 1963, 326]. "Boburnoma"da *bo'rk*ning a) *os bo'rk*—"os (qunduz) terisidan tikilgan bo'rk", b) *mo'g'uliy bo'rk*—"mo'g'ulcha bo'rk", v) *dubulg'a bo'rk*i—"dubulg'a ostidan kiyiladigan bosh kiyim" kabi turlari qayd etilgan [Холманова 2009, 13]. Xorazm shevalarida leksema "bosh kiyim, telpak" ma'nolarida qo'llanadi. Turk tili shevalarida "yomg'irdan, sovuqdan saqlanish uchun kiyiladigan kuloh" ma'nosida *börkenek* fonetik varianti ham ko'zga tashlanishi ma'lum bo'lgan [Usmanova 2010, 146].

“Qutadg‘u bilig”da *börk*ning inson faoliyatiga baho berishda etalon sifatida qo‘llanishi bu so‘z ifodalagan tushunchaning xalq hayotida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Xalq o‘z muddatida tug‘ilmagan, chala go‘daklarni bo‘rkka, telpakka solib, avaylab, ardoqlab parvarishlangan. “Bo‘ri bolasini bo‘rkingda boqsang ham turmas” maqolida bo‘ri bolasini “shu darajada ehtiyotlab boqsang ham, el bo‘lmaydi”, degan mazmun ifodalangan. Bo‘rkda bola boqish o‘zbek xalqining madaniy munosabatlarini ifodalovchi birikma bo‘lib, “avaylash”, “asrash” ma’nolarini keng ko‘lamda ifodalashga xizmat qiladi [Тошева 2017, 35].

Iñäk so‘zi asarda “sigir” tushunchasini bildirgan: *Ya quzda yuriyli qalın köp qotuz, ya tüzdä yuriyli uđ iñäk öküz.* — Yo tog‘ning kun tushmas tomonlarida yuruvchi behisob ko‘p qo‘tos (lar), yo tekislik(lar)da yuruvchi buqa, sigir, ho‘kiz (lar) [ҚБН, 5259; 193^b14]. Bu so‘z hozirgi kunda “sigir” ma’nosida Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand shevalarida qo‘llanadi [Решетов 1978, 35]. *Iñäk* leksemasida “jinsga mansublik”, “urg‘ochilik” semasi aks etadi. Mahmud Koshg‘ariy o‘g‘uzlar toshbaqaning urg‘ochisini *iñäk* deb atashini aytib o‘tgan [ДЛТ I 1963, 135]. “Двернетюрский словарь”-da bu leksemalar omonim tarzida izohlangan [ДТС 1969, 211].

Asarda “narvon” ma’nosida **šatu** leksemasi qo‘llangan: *Šatu kördüm ellik anıñ baynası, yüz otu uruyluy ediz ham yası.* — Narvon ko‘rdim, uning pog‘onasi ellikta (edi), tiklab qo‘yilgan, baland hamda keng (edi) [ҚБН, 5908; 217^a1]. Turfon matnlarida ham qo‘llangan bu so‘z [ДТС 1969, 521] dastlab “aravaning asosini tashkil qiluvchi, bir necha yeridan ko‘ndalangiga taxta bilan birlashtirilgan ikki uzun yog‘och”ni anglatgan [ЎТЭЛ I 2000, 456]. Hozir u Toshkentda “arava qismi nomi”, Farg‘onada esa “narvon” ma’nosida qo‘llaniladi.

“Jindek, ozgina” ma’nosidagi **žičä** so‘zi kunning ma’lum qismi, paytning daraja-miqdorini bildirgan: *Yanut berdi Ögdülmiş aydı kečä, yaruq dünya meñzi tünärsä žičä*— Javob berdi O‘gdulmish, aytdi: kechasi, yorug‘ dunyo yuzi andak qorong‘ilashganda [ҚБН, 4912; 181b1]. *Jicha* so‘zi hozirda Andijon–Farg‘ona shevalarida faol qo‘llanadi [ЎТИЛ II 2006, 95].

Doston matnida qo‘llangan **ešik** leksemasi quyidagi baytda “hovli” ma’nosida kelgan: *Til arslan turur kör ešikdä yatur, aya ewlüg arsiq başıñnı yeyür* — Til hovlida [ya’ni qafasda] yotgan arslon kabidir, ey qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi [ҚБН, 160; 13^a9]. *Ešik* so‘zida sinekdoxa asosida ma’no ko‘chgan, “hovli” ma’nosi ifodalangan. Bu so‘z Farg‘ona shevasida faol qo‘llanadi.

Bek—“mahkam, berk, mustahkam”, *kenč*—“chaqaloq,

go'dak", *kizlā*— "yashirmoq, saqlamoq, asramoq", *uʃaq*— "mayda, g'iybat", *uʃaqčī*— "g'iybatchi, yolg'onchi, maydagap odam", *usal*— "beparvo, beg'am", *ūlgūlā*— "o'lchamoq", "aniqlamoq", *ūlgūlūg*— "o'lchovli, bir maromda", *bekla*— "mahkamlamoq, mustahkamlamoq, kuchaytirmoq", *qumartqu*— "vasiyatnoma, meros", *qapuʻ*— "eshik", *nuql*— "shirinlik" so'zlari hozirgi o'zbek shevalarida qo'llanishda davom etmoqda.

Shevalar adabiy tilni boyituvchi ichki manba hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, eng qadimgi leksik birliklarni o'zida mujassamlantiradigan, semantik o'zgarishlarni namoyon etadigan muloqot shakli hamdir.

Hozirgi o'zbek tilida qo'llanmaydigan so'zlar. "Qutadg'u bilig"dagi turkiy so'zlarning 37%i hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanmaydi. Bu holat arabcha, forsha, mo'g'ulcha o'zlashmalar yoki o'z qatlam negizida yangi yasalmalarning faol qo'llanishi natijasida ayrim turkiy so'zlarning iste'moldan chiqishi bilan bog'liq. Quyida hozirgi o'zbek tilida iste'moldan chiqqan ba'zi so'zlar semantikasi borasida to'xtalamiz.

"Jigar; qalb, yurak; qarindosh" ma'nolarini ifodalagan **bayir** so'ziga -saq affiksini qo'shishdan yasalgan **bayirsaq** leksemasi ilk bor aynan doston matnida qo'llangan va "marhamatli", "shafqatli", "sadoqatli" ma'nolarini anglatgan. Ushbu derivat asarda ko'proq Allohning sifatlarini ifodalashda qo'llangan. Qahramonlar tilida *bayirsaq idim*— "mehribon egam", *bayirsaq inanyu idim*— "mehribon, inonadigan egam" birikmalari ishlatilgan [Содиқов 2009, 219]. *Bayirsaq* sifatidan yasalgan *bayirsaqliq*— "marhamatlilik", "shafqatlilik", "mehribonlik", "xushmuomala, yoqimli" ma'nolarini anglatgan: *Bayirsaqliq erdi tūgāl bu sōzūm, esān qal salamat e kōrklūg yūzūm*.— Bu so'zlarim barchasi mehribonlikdan iborat, eson va salomat qol, ey yuzi ko'rkligim [ҚБН, 1460; 59b5]. *Bayirsaqliq* "Двер-нетюрский словарь"da "sodiqlik" ma'nosida qayd etilgan [ДТС 1969, 78]. Mahmud Koshg'ariy devonida "xushmuomala, yoqimli odam"ni bildirgan [ДЛТ I 1963, 460]. Bu so'zning ma'nosi hozirda *mehribon, marhamatli, samimiy* kabi arabcha so'zlar bilan ifodalanadi. Leksemaning antonimi **bayirsiz** "Qutadg'u bilig" matnida "yomon, shafqatsiz, berahm, xudbin" ma'nolarida aks etgan.

"Shijoatli, mard, jasur" ma'nosidagi **ersig** (er+sig) derivati asarda yigitlarning fazilatlarini ifodalangan: *Yayīqa qatīy bolsa ersiglikī, kōrūr kōzkā suw bersā kōrklūglikī*.— Shijoatda yovga nisbatan beayov bo'lsa, chiroyi ko'ruvchi ko'zlarga suv baxsh etsa [ҚБН, 2051; 80b3]. *Ersig* bir qator so'zlar bilan sintagmatik

munosabatga kirgan. Masalan, *ersig yüräklig*—“botir yurakli”, *ersig er*—“botir er”, *ersig beg* —“shijoatli bek” kabi.

“Poklik, tozalik” ma’nosini anglatgan **arīyliq** so’zining grammatik tarkibi quyidagicha: “pok, toza” ma’nosini anglatgan **ar** sifatidan **-ī** qo’shimchasi bilan yasalgan “tozalamoq, poklanmoq” ma’nosidagi *arī-* fe’liga *-γ* qo’shimchasini qo’shib sifat [ЎТЭЛ I 2000, 31], *-liq* qo’shimchasini qo’shib ot hosil qilingan. Bu so’z “To’nyuquq” bitiktoshida “oliyjanob, saxiy” ma’nosida qo’llangan [ДТС 1969, 52]. “Qutadg‘u bilig”da “soflik” ma’nosini ifodalagan: *Kōzi toq kerāk keḏ yemā kōñli bay, arīyliq kerāk ham yūzi kōrki ay.*— Juda ko’zi to’q, yana ko’ngli boy (bo’lishi) kerak, soflik darkor ham yuz chiroyi oy (dek bo’lishi) kerak [ҚБН, 2803; 106^a10]. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida “nopoklik” ma’nosida orig’sizlig’ leksemasining kuzatilishi [АНАТИЛ II 1985, 526] tahlil etilayotgan so’zning eski o’zbek adabiy tilida ishlatilganining ehtimoldan xoli emasligini bildiradi.

Muloyim, yumshoq tabiatli kishilarga nisbatan qo’llangan **alčaq** so’zi ham hozirgi o’zbek adabiy tilida qo’llanmaydi. “Qutadg‘u bilig”da “saxovatli, yumshoq ko’ngil” ma’nolarini anglatgan: *Kičigi sewüglüg qarisi amul, özi tüzün alčaq kōr asyi öküş.*— (Uning) navqironligi — muhabbat, qariligi — salobat, o’zi afzal, saxovatli, ko’rgin nafi talaydir [ҚБН, 1838; 72^b11].

Shaxs tabiatiga xos illatlarni ifodalashda “tilanchi”, “tamagir” ma’nolarini bildiruvchi **umduči** so’zi qo’llangan: *Kiši umduči bolsa boldi bulun, suyurqa anı sen e kōrki tolun*— Kishi tamagir bo’lsa, narsaga qul bo’ladi, sen unga ehson qil, ey chiroyi to’lin oy [ҚБН, 2683; 102a6]. Baytda narsaga qul bo’lish, tamagirlik yomonliklarga yetaklovchi illat sifatida qoralangan, uning oldini olishga da’vat qilingan. Baytdagi *suyurqa* “ehson qilmoq” ma’nosidagi so’z bo’lib, molga qul bo’lgan shaxsga davo chorası sifatida tilga olingan. Tamagir odamdan hech qachon yaxshilik chiqmasligi ta’kidlangan. “Двернетюрский словарь”da *umduči* “xasis, baxil” ma’nolarida qayd etilgan [ДТС 1969, 611]. Mahmud Koshg’ariy lug’atida mazkur derivat “o’tinuvchi, tovlamachi” tarzida izohlangan [ДЛТ I 1963, 125; ДТС 1969, 611].

“Baxillik, ochko’zlik, xasislik” ma’nolari **saran** so’zi orqali ifodalangan: *Nekü ter eşitgil saraniy bilig, e čiryu, e munluy, e tegmiş elig.*— Ma’rifatda ochko’z haqida nima deyilgan, eshitgin, ey ko’zi yoshli, ey, mungli, ey, azob chekkan [ҚБН, 1643; 66^a1]. Keyingi davr manbalarida qayd etilmagan *saran* leksemasi “Двернетюрский-словарь”da “ochko’z” ma’nosida qayd etilgan [ДТС 1969, 488]. Shu

asosdan yasalgan *saranliq* “ochko’zlik” ma’nosida keltirilgan [ДТС 1969, 488]. Mahmud Koshg’ariy *saranla*= so’zining “xasis, ochko’z hisoblamoq” ma’nosini anglatganini qayd etgan [ДЛТ 1963, 345].

“Yodgorlik, esdalik, meros” ma’nolarini bildirgan **qumaru** so’zi ham hozirgi kunga kelib iste’moldan chiqqan: *Ölügdin tirigkä qumaru söz-ul, qumaru sözi tutsa asyiyüz-ul*— O’lgan(lar)dan tirik(larga) meros so’zdir, meros so’zi tutilsa [ya’ni otalar so’zini tutilsa], nafi yuz-yuzdir [ҚБН, 267; 17^a2]. “Devonu lug’otit turk”da ushbu leksema *xumaru* shaklida kelgan va quyidagicha izohlangan: “Kattalardan biror kishi o’lsa, uning molidan bir nafis narsa shohga taqdim etiladi, ana shu narsani *xumaru* deyiladi. Undan esdalik demakdir. Safarga ketayotgan kishining qarindosh va tanishlariga qoldirayotgan narsasi ham *xumaru* deyiladi. Bu so’z erkak va ayollar nomi sifatida ham ishlatiladi” [ДЛТ 1963, I, 416]. *Qumaru* qoraxoniylar davridagi madaniy munosabatlarni aks ettirgan, xalqning o’ziga xos qadriyati, urf-odati ifodalangan leksik birlikdir. Q. Sodiqov “Qutadg’u bilig”ni “Mangu qumaru” deb ataydi [Содиқов 2010, 50]. *Qumaru* so’zi arabcha *meros* so’zining turkiy tillardagi muqobilidir. “Qisasi Rabg’uziy” matnida leksema *qumartyushaklida* “meros, armug’on” ma’nosini bildirgan [ҚР, 51 v 3].

“Ko’p, ancha” ma’nolarini anglatuvchi **üküş//öküş**leksemasi ham hozirgi o’zbek adabiy tilida qo’llanmaydi: *‘Arabča-tažikča kitablar öküš, biziñ tilimizčä bu yumyï uquš*.—Arabcha, tojikcha bunday kitoblar talaydir, bizning tilimizda esa bu jamlangan zakovatdir [ҚБН, 58^b]. “Двернетюрский словарь”da baytning ikkinchi misrasi *“biziñ tilimizkä burunyï uquš* — bizning tilimizdagi birinchi donishmandlik kitobidir” tarzida berilgan [ДТС 1969, 126]. Telim, qalın leksemalari bilan sinonimik qatorni yuzaga chiqargan, qadimgi turkiy til namunalarida ham faol qo’llangan **üküş//öküş** leksemasi keyingi davr manbalarida ham keng ishlatilgan.

“Qutadg’u bilig”da “rahnamo, yo’lboshchi, yo’lchi” ma’nosidagi **qulawuz** so’zi qo’llangan. *Bu kökdäki yulduz bir anča bezäk, bir anča qulawuz bir anča yezäk*.— Bu ko’kdagi yulduzlarning bir qanchasi bezakdir, bir qanchasi rahnamo va bir qanchasi yo’lchidir (ҚБН, 124; 12^a1). Mahmud Koshg’ariy lug’atida *qulabuz* [ДЛТ 1963, 449] shaklida qayd etilgan. *Qulawuz* — “yo’l boshlovchi” ma’nosida “Qisasi Rabg’uziy”da ham uchraydi [Абдушукуров 2017, 17]. Bu so’zning fonetik o’zgarishga uchragan *qulayuz* shakli XIV asr manbalarida kuzatiladi. Bu so’zning Alisher Navoiy asarlarida ham uchramasligiga asoslanib, uning XVI asrlarda arxaik so’zga aylana boshlagan, deyish mumkin. Asl turkiy leksemalarni asarlarida qo’llashni ma’qul

ko‘rgan Cho‘lpon ushbu ko‘hna so‘zni qalag‘uz shaklida “yurt yo‘li” she‘riga olib kirgan [Чўлпон 1991, 462]. Hozirgi turk tilida kelavuz “yo‘l ko‘rsatuvchi; gid; quda; yo‘naltiruvchi” kabi ma‘nolarda faol qo‘llanadi [ТПСН, 539].

Doston matnida kelgan **tünäk** (tünä= “tunamoq”+k) leksemi “tunash joyi” ma‘nosida kelgan: *Apa yazdı ersä bayat qınadı, bu dunyay tünäk qıldı erklig idi* —Odam gunoh qilsa, xudo qiynaydi, erkli egam bu dunyoni tunash joyi [ya‘ni qo‘nib o‘tadigan omonat joy] qildi [ҚБН, 3475; 130^a9]. Muallif dunyoni “tunash joyi”, “tushdek umr”, “qiliqlari qiz, o‘zi esa kampir” deb atagan.

“Qutadg‘u bilig” leksikasidagi *qadaş*—“qarindosh”, *bedizçi* —“o‘ymakor usta, bezakchi, bo‘yoqchi, rassom, naqqosh” kabi shaxs otlari; *örüglük*—“ro‘shnolik”, *siliglik*—“xushfe‘llik”, *aqiliq* —“saxiylik, qo‘li ochiqlik”, *asīy*—“foйда” kabi mavhum otlar; *tona*—“bahodir”, *esiz* “yomon”, *tüzünlüg*—“muloyim”, *ayīy*—“yomon, yaramas, yovuz, o‘tkinchi, beqaror”, *aqi* —“saxovatli, saxiy, qo‘li ochiq”, *aqsun*—“yovuz, qahrli, g‘azabnok, shiddatli” kabi belgi-xususiyat bildiruvchi so‘zlar; *tuyar* —“sharq”, *batar*—“g‘arb” kabi geografik nomlar; *čečäklik*—“gulzor”, *köräk*—“yaproq, kurtak” singari fitonimlar; *māñiz*—“yuz”, *quruysaq*—“ko‘ngil, yurak” kabi a‘zo nomlari; *yaz*—“gunoh qilmoq”, *tonan* — “kiymoq”, *ota*—“davolamoq”, *ayirla*—“e‘zozlamoq, qadrli qilmoq”, *emgä qil*—“ozor topmoq”, “kulfatga solmoq”, *ayit*—“tashlamoq, bartaraf qilmoq, o‘rtadan ko‘tarmoq, bas qilmoq” kabi fe‘llar, *bediz* “bezak, naqsh, bo‘yoq, rasm” kabi otlar, *qamuy*—“hamma” olmoshi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi. Bu leksemalar o‘rnini arabcha, forsha so‘zlarga bo‘shatib bergan.

Asar matnida ishlatilgan, hozirgi kunda iste‘moldan chiqqan yuqoridagi so‘zlar, asosan, arxaizmga aylangan, bugungi kunda boshqa leksik birliklar bilan ifodalanadigan tushunchalardir. Bu so‘zlarni o‘rganish natijasida hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanadigan yuzga yaqin arabcha, forsha birliklarning turkiy muqobili aniqlandi: *sawçi*—“payg‘ambar”, *tapuyçi* —“xizmatkor”, *tanuq*—“guvoh”, *adruq*—“farq”, *kökis*—“mag‘rur”, *tuşay*—“kishan”, *esin*—“shamol”, *ayir*—“qimmat, hurmatli”, *qilīnč*—“xarakter”, *qiliq*—“fe‘l-atvor” shular sirasidandir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘shma fe‘llar bilan ifodalanadigan tushunchalarning bir so‘zdan iborat variantlari ma‘lum bo‘ldi: *atīq*— “nom chiqarmoq”, *alqin*— “yo‘q bo‘lmoq”.

“Qutadg‘u bilig” matnida bugungi kunda iste‘moldan chiqqan shunday so‘zlar borki, ular anglatgan ma‘nolarni ifodalovchi leksik birliklar adabiy til va sheva o‘rtasidagi lakunalarni hosil qiladi.

Irkil — “to‘planmoq, yig‘ilmoq”. *Bu kün qılmasa iş yarın iş bolur, işin iş üzä bolsa irkilip qalur.*— Ishni bugun qilmasang ertaga ish bo‘ladi, ishing ish ustiga bo‘lsa, to‘planib qolur [ҚБН, 5388; 198b3]. Bu so‘z ko‘proq suyuq holdagi narsa-hodisaning to‘planishi, yig‘ilishiga asoslanib, “to‘planmoq, yig‘ilmoq” tushunchalari bilan birga suyuqlikning titrama harakatini ham ifodalaydi.

Kökčîn leksemasi “ko‘pni ko‘rgan, tajribali kishi” ma‘nosini bildirgan: *Nekü ter eşit emdi türkčä masal, başında keçürmiş bu kökčîn saqal* – Endi (bu) turkcha masalni eshitgin, (unda) nima deydi, o‘z boshidan kechirgan oqsoqol (yoshi ulug‘ kishi) [ҚБН, 653; 30^a11]. *Kökčîn saqal* birikmasi tarkibida qo‘llangan *kökčîn*qora soqolning oq tusga kirishi, oq va qora ranglarning aralashgan ko‘rinishini ifoda etadi. F. Abdujabborova **урүң қырғыл**leksemasining *kökchin* leksemasiga mutlaq ma‘nodosh tarzida qo‘llanganini qayd etadi [Абдужабборовва 2011, 12].

“Qutadg‘u bilig” matnida qo‘llanishda bo‘lgan tub qatlam xususida mulohaza yuritilganda, albatta, bir jihatga alohida diqqat qaratish zarur. Ya‘ni doston so‘z boyligi tarkibida shunday leksik birliklar mavjudki, ular dostonga qadar va undan keyin yaratilgan manbalar, jumladan, qadimgi turkiy run bitiklari, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq”, Zamaxshariyning “Muqaddimatul-adab”, muallifi noma‘lum “O‘g‘uznoma” singari manbalar tilida kuzatilmaydi. Yana bir jihat, ya‘ni Yusuf Xos Hojibning davr manbalarida ishlatilgan u yoki bu leksemaga yangi ma‘noni ifodalash vazifasini yuklatganiga alohida e‘tibor berish maqsadga muvofiq. Zero, ana shunday kuzatishlar muayyan adibning yangi so‘z yasash yohud mavjud so‘z ma‘no doirasini kengaytirish yo‘lidagi sa‘y-harakati borasida biror to‘xtamga kelishga imkon yaratadi. Ayrim misollarni tahlil qilamiz.

“Baxil, qizg‘anchiq; ochko‘z” ma‘nolarini ifodalovchi **qopdaq** // **qovdaq** // **qovdaš** shaklli leksema faqat dostonda qo‘llangani bilan xarakterlanadi: *Bičäqtutma anda kötürmä sönük, ayi bolma qowdaš ya silkim sepük.*— U yerda pichoq ishlatma, so‘ngak olma, zinhor betoqat, yengiltak bo‘lma [ҚБН, 4495; 166^b11]. Shunday fikrni “bo‘sh, xoli; oz, kam” ma‘nolarini anglatgan **qoqur** // **qoquz** (<qoq= ozaymoq, kamaymoq, pasaymoq) derivati borasida ham bildirish mumkin: *Ata bardı ornı quruy ham ququz, ququz tolyuqa kördüm oylin keđ uz.* —Ota o‘ldi, uning o‘rni quruq va bo‘sh qoldi, bu bo‘shni to‘ldirish uchun o‘g‘lini juda munosib ko‘rdik [ҚБН, 1602; 64^b1].

Etimologiyasi hozircha noaniq **öñdi** leksemasi “qonun,

qoida” ma’nosini anglatgan: *Bu yanliq turur bu aqun oñdisi, keräk oñdisi tut keräk tönñdisi.* — Bu dunyoning qoidalari shu yanglig’dir, ista qoidalarini tut, ista aksini [ҚБН, 4616; 171^a4]. Yusuf Xos Hojib ushbu so’zni qadimgi turkiy til davridan faol qo’llanib kelayotgan törü leksemasi bilan juftlashtirib, *oñdi törü* yoki *törü oñdi* shaklida qo’llagan: *Munu men bilir-men bu oñdi törü ayayin men emdi sen örgän körü.* — Mana, men tartib-qoidalarni bilaman, endi men aytayin, sen ko’rib o’rgan [ҚБН, 3925; 146^a2].

Doston muallifi eski turkiy til manbalarida keng iste’molda bo’lgan **ört=** “yopmoq, berkitmoq; o’ramoq” fe’lidan yasalgan örtüg derivatiga –gün affiksini qo’shib, “maxfiy, yashirin, sirli” ma’nosidagi *örtügün* sifatini yasagan: *Men bu kün qadaşimya baryum kelürörtügün.* — Men bugun qarindoshimnikiga yashirin bormoqchiman [ДТС 1969, 390].

Hozirgi o’zbek adabiy tilida “yo’lto’sar, bosqinchi” sememasini ifodalovchi qaraqçı(< qaraq “ko’z”) yasamasining ilk bor aynan Yusuf Xos Hojib asarida qo’llangani kuzatiladi. Ushbu derivatning sekri= “ot qo’yimoq, chopmoq” (<sek= tez yurmoq) asosida yasalgan **sekärçi** so’zi bilan juftlashib, “bosqinchi, yo’lto’sar” ma’nosini anglashga xizmat qilgani ham «Qutadg’u bilig»da aksini topgan. *Qaraqçı* leksemasi keyingi davr manbalaridan Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Qutbning “Xusrav va Shirin” asarida qayd etiladi [ЭСТЯ, II,600]. Eski o’zbek adabiy tilida ushbu birlikning qo’llanish chastotasi tezlashgan [АНАТИЛ IV 1987, 36]. Juft so’z tarkibida kelgan *sekärçi* o’zga manbalarda kuzatilmaydi.

Dostonda “baland ovoz bilan baqirmoq, qichqirmoq” ma’nosidagi qaqila= leksemasining hozirgi o’zbek tilida “xaxolab kulmoq, qah-qaha urmoq” ma’nosida mavjud qaqillamoq fe’li bilan semantik-genetik aloqadorligi haqida mulohaza yuritishga undaydi. Yusuf Xos Hojib *örüglüg* “o’ralgan”, *örüglük* “xotirjamlik, sokinlik”, *özkäy*—“sodiq”, qarim —“o’ra”, *qiruq*—“buzg’unchi”, *köksä*—“ko’kka, osmonga ko’tarilmoq”, *küčkäy* —“zo’ravon”, *tolula*// *tolala*—“to’ldirmoq”, *toluluq*—“to’liqlik”, *tolumluq*—“qurol-aslahali, qurollangan, *tolun*—“to’lin (oy)” singari talay so’zlarni asarida qo’llab, davr so’z boyligining rivojiga salmoqli ulush qo’shgan.

“Qutadg’u bilig”da keltirilgan, biroq hozirda qo’llanmaydigan so’zlar eski turkiy til leksikasini o’rganishda, uning semantik qirralarini yoritishda ahamiyatlidir.

Qisqartmalar

АНАТИЛ – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.

ДТС – Древнетюрский словарь.

ДЛТ – Девону луғотит турк.

ЭСТЯ – Этимологический словарь тюркских языков.

ЎТЭЛ – Ўзбек тилининг этимологик луғати.

ЎТИЛ – Ўзбек тилининг изоҳли луғати.

ҚБН – Қутадғу билиг.

Adabiyotlar

Абдужаббарова, Ф. 2011. *“Қутадғу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика*. Филол. фан. номз... дисс. Тошкент.

Abdurahmonov, G., To'xliyev, B., Rustamov, A., Dadaboyev, H. 2011. *Qutadg'u bilig*. I,II,III,IV,V jildlar. Toshkent: Jahon print.

Абдушукуров, Б. 2017. *“Қисаси Рабғузий” лексикаси*. Филол. фан. док ...дисс. автореф. Тошкент.

Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I, II, III, IV жилдлар. 1985-1987. Тошкент: Фан.

Будагов, Л.З. 1871. *Сравнительный словарь турецко-татарских наречий*. Том. II. СПб.

Дадабаев, Х. 1991. *Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.* Тошкент: Ёзувчи.

Дадабоев, Х., Ҳамидов, З., Холманова, З. 2007. *Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи*. Тошкент: Фан.

Древнетюркский словарь. 1969. Ленинград: Наука

Ҳожиев, А. 2002. *Тилишунослик терминларининг изоҳли луғати*. Тошкент.

Lütfiye, Göktaş Kaya. 2015. “Semiology in the teaching of history of art”. *ScienceDirect. Procedia – Social and Behavioral Sciences* 174: 3350 – 3357,

Малов, С.Е. 1951. *Памятники древнетюркской письменности*. Москва.

Миртожиев, М. 2010. *Туркий туб сўзлар*. Тошкент: Mumtoz so'z.

Қарлибаева, Г. 2017. *Ажиниёз асарлари тилининг семантик-стилистик хусусиятлари*. Филол. фан. док. дисс.. автореф. Нукус.

Кошғарий, Маҳмуд. 1960. *Девону луғотит турк*. I жилд. Тошкент.

Қутадғу билиг. 1972. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов. Тошкент: Фан.

Раҳматуллаев, Ш. 2000-2003-2009. *Ўзбек тилининг этимологик луғати*. I, II, III жилдлар. Тошкент: Университет.

Раҳматуллаев, Ш. 2006-2008. *Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. I, II, III, IV, V жилдлар– Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

Решетов, В., Шоабдурахмонов, Ш. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент.

Рустамий, С. 2018. *Ўрта асрлар Ислом балоғат илмида тилишуносликка оид қарашлар*. Филол. фан. док-ри дисс. автореф. Тошкент.

Сайидов, Ё. 2018. *Жадид бадиий асарлари лексикаси*. Филол. фан. док. дисс. автореф. Тошкент.

Севортян, Э. В. 1974-1994. *Этимологический словарь тюркских языков*. Москва: Наука.

Sodiqov, Q. 2010. “Mangu qumaru” *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, №50.

Тошева, Д. 2017. *Зооним компонентли мақолларнинг лингвокультурологик*

- хусусиятлари. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. Тошкент.
- Тўйчибоев, Б., Қашқирли, Қ. 2012. *Зоминнинг тил қомуси*. Тошкент.: Академнашр.
- Усманова, Ш. 2010. *Олтой тилларида муштарак маиший лексика*. Тошкент:Фан.
- Холманова, З. 2009. *"Бобурнома" лексикаси тадқиқи*. Филол. фан. док... дисс. автореф. Тошкент.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V жилдлар. 2006-2008. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

M. Xolmuradova

(Toshkent, O'zbekiston)

xolmurodova@navoiy-uni.uz

The Statistical Analysis and the Genetic Basis of the Lexis of the Work Titled "Qutadgu Bilig"

Abstract

In this article is about the "Kutadgu bilig"'s important role of history of the Turkic and world's culture and the importance of to learn language progress. 2019 year is named "Kutadgu bilig" by the United Nation to honor its 950 years which had written. It is the global event for the nation and nation's history.

In this research work, it is emphasized the statistical analysis of "Kutadgu bilig"'s lexics, the Turkic and acquired or loan words are thought comparatively. The texts of the poem are organized 84% lexemes of the Turkic language. It is also exemplified from the poem to usage of the present Turkic literal words through the phonetic, semantic changes. The lexemes of the texts of the poem are analyzed related with dialects.

Key words: *statistics, Turkic words, knowledge, loan words, Arabic words, Persian words, Chinese words, Sanskrit loan words.*

About the author: *Mushtariy Xolmuradova* – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

Recommended citation: Xolmurodova, Mushtariy. 2019. "The Statistical Analysis and the Genetic Basis of the Lexis of the Work Titled "Qutadgu Bilig". *Golden scripts* 4: 14—33.

References

- Abdusjabbarova, F. 2011. *"Qutadg'u bilig"dagi shaxs belgi-xususiyatini anglatuvchi leksika*. Filol. fan. nomz... diss. Toshkent.
- Abdurahmonov, G., To'xliyev, B., Rustamov, A., Dadaboyev, H. 2011. *Qutadg'u bilig*. I,II,III,IV,V jildlar. Toshkent: Jahon print.
- Abdushukurov, B. 2017. *"Qisasi Rabg'uziy" leksikasi*. Filol. fan. dok ...diss. avtoref. Toshkent.
- Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I, II, III, IV jildlar. 1985-1987. Toshkent: Fan.
- Budagov, L.Z. 1871. *Sravnitelniy slovar turetsko-tatarskix narechiy*. Tom.II. SPb.
- Dadabaev, H. 1991. *Obshchestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pismennix pamyatnikax XI-XIV cc*. Toshkent: Yozuvchi.
- Dadaboev, H., Hamidov, Z., Xolmanova, Z. 2007. *O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi*. Toshkent: Fan.
- Drevnetyurkskiy slovar*. 1969. Leningrad: Nauka
- Hojiev, A. 2002. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. Toshkent.
- Lütfiye, Göktaş Kaya. 2015. "Semiology in the teaching of history of art". *ScienceDirect. Procedia – Social and Behavioral Sciences* 174: 3350 – 3357,
- Malov, S. Y. 1951. *Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti*. Moskva.
- Mirtojiyev, M. 2010. *Turkiy tub so'zlar*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Qarlibaeva, G. 2017. *Ajiniyoz asarlari tilining semantik-stilistik xususiyatlari*. Filol.fan.dok. diss.. avtoref. Nukus.
- Koshg'ariy, Mahmud. 1960. *Devonu lug'otit turk*. I jild. Toshkent.
- Qutadg'u bilig*. 1972. Transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif qiluvchi Q. Karimov. Toshkent: Fan.
- Rahmatullaev, Sh. 2000-2003-2009. *O'zbek tilining etimologik lug'ati*. I, II, III jildlar. Toshkent: Universitet.
- Rahmatullaev, Sh. 2006-2008. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. I, II, III, IV, V jildlar– Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
- Reshetov, V., Shoabdurahmonov, Sh. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent.
- Rustamiy, S. 2018. *O'rta asrlar Islom balog'at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar*. Filol. fan. dok-ridiss. avtoref. Toshkent.
- Sayidov, Y. 2018. *Jadid badiiyasarlari leksikasi*. Filol. fan. dok. diss. avtoref. Toshkent.
- Sevortyan, E. V. 1974-1994. *Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov*. Moskva: Nauka.
- Sodiqov, Q. "Mangu qumaru", *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, №50, 2010.
- Tosheva, D. 2017. *Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari*. Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. Toshkent.
- To'ychiboev, B., Qashqirli, Q. 2012. *Zominning til qomusi*. Toshkent.:

Akademnashr.

Usmanova, Sh. 2010. *Oltoy tillarida mushtarak maishiy leksika*. Toshkent: Fan.

Xolmanova, Z. 2009. *“Boburnoma” leksikasi tadqiqi*. Filol. fan. dok...diss. avtoref. Toshkent.

O'zbek tilining izohli lug'ati. I-V jildlar. 2006-2008. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Abbreviations

ANATIL – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati.

DTS – Drevnetyurskiy slovar.

DLT – Devonu lug'otit turk.

ESTYA – Etimologicheskii slovar yurkskix yazikov.

O'TEL – O'zbek tilining etimologik lug'ati.

O'TIL – O'zbek tilining izohli lug'ati.

QBN – Qutadg'u bilig.